

**MUALLIFLIK EKSPERTIZASIDA ADABIY ME'YORDAN CHIQISH
SABABLARINI O'RGANISHNING LINGVISTIK EKSPERTIZADAGI
AHAMIYATI**

Abdurayimova Durdona Samat qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

O'zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti

www.Abdurayimovadurdona21@gmail.com

Annotatsiya. Shaxsiy yozishmalarda adabiy me'yordan chiqishni sabablari va anonym xabarlarining muallifini aniqlashda lengvistik ekspertlarga qo'yiladigan talablar hamda uning muallifini aniqlashda yozishmalarning lingvistik xususiyatlarini o'rganish kabilar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar. Mualliflik ekspertizasi, psixolingvistika, matn tilshunosligi, shaxsiy yozishma, nutq, audio yozishma, sotsiolingvistika, pragmalingvistika, vedio yozishma.

**THE IMPORTANCE OF THE STUDY OF THE CAUSES OF DEVIATIONS
FROM THE LITERARY NORM IN THE EXAMINATION OF AUTHORSHIP
IN LINGUISTIC EXAMINATION**

Annotation. The reasons for deviating from the literary norm in personal correspondence and the requirements for linguistic experts in determining the author of anonymous messages, as well as the study of the linguistic features of correspondence in identifying its author, are discussed.

Keywords. Copyright examination, psycholinguistics, text linguistics, personal correspondence, speech, audio correspondence, sociolinguistics, pragmalinguistics, video correspondence.

Mualliflik tekshiruvining vazifalari yozma nutq orqali shaxsni tashxislash va aniqlash, matnning ma'lum bir muallifga tegishlilikini tasdiqlash yoki rad etishni o'z ichiga oladi. Muallifni tekshirish jarayonida psixologik xususiyatlar, matn muallifi holatining va boshqalarni ham aniqlanishi mumkin. E. N. Kalugina va A. V. Volkogonovalarning fikriga ko'ra, ekspert uchun eng muhim ma'lumot qidirish vositasi matnni o'rganish usullari bo'lib, buning yordamida matn muallifining ongli va ongsiz harakatlari, shuningdek, lingvistik identifikatorlar (shaxs xususiyatlari, imlo xususiyatlari) tashxis qilinadishuninhddek , tinish belgilari, leksik, grammatik, sintaktik xatolar kabilar tahlilga tortiladi. Nomlash ekspertizasi vazifalari intellektual mulk obyektlari sifatida to'g'ri nomlar va individuallashtirish vositalaridan, nomlardan foydalanish tahlilini o'z ichiga oladi; ismlarning etimologiyasi va madaniy komponentlarini belgilash; turli uslubdagi matnlarda yozma shakli an'analari kabilar. T.P.Sokolovanning fikricha, nomlash ekspertizasini o'tkazish ekspertdan tilshunoslik, onomastika, sud nutqi va sud ekspertiza sohalarida bilimga ega bo'lishni talab qiladi. Sha'n, qadr-qimmat va ma'lum bir shaxslarning obro'sini himoya qilish bo'yicha ishlar lingvistik ekspertizaning asosiy vazifalaridan biri hisoblanib, shuningdek, shaxsiy yozishmalarda lengvistik ekspertiza e'tiroz bildirilayotgan matnlarda haqoratomuz bayonotlar, salbiy ma'lumotlar, tuhmat qiluvchi ma'lumotlar, shaxsiy yoki kasbiy munosabatlarga salbiy baho berilganligi haqidagi savollarni hal qilish zarur bo'lganda amalga oshiriladi. Ma'lum bir shaxsing obro'sizlantirishga yoki uning omma oldidagi hurmatini to'kish maqsadida yozilgan yozishmalarni ekspertlar tahlil qilayotganda, albatta, yozishmadagi adabiy me'yordan chiqish ko'rinishlari bilan birgalikda matnning etikasiga ham e'tibor berilishi lozimdir. Bizning fikrimizcha, barcha shaxslarning konstitutsiya darajasida mustahkamlanganligi va uni sud orqali himoya qilish kafolatlari sud-huquq nutqida ekspertizaning ushbu jarayonida shaxsiy yozishmalarda adabiy me'yordan chiqish sababalarini o'rganish bilan gumondor nomzodlar ichidan jinoyatchini topish imkonini yaratishi yoki gumondorlar orasida u shaxsning yo'qligini aniqlash kabi imkoniyatlarini berishi mumkin. Ekstremizm holatlarida lingvistik ekspertizaning asosiy vazifalariga bayonotlar ma'nosini izohlash kiradi; og'zaki va yozma matnlarda irqiy, milliy,

tabaqalararo adovatni qo‘zg‘atishga yordam beruvchi ekstremistik va terroristik yo‘nalishdagi matnlarni aniqlash; turli auditoriyalar tomonidan matnlarni idrok etish va tushunish xususiyatlarini aniqlash juda muhim sanaladi. Jenkinning fikriga ko‘ra, “Nutqni emas, voqelikni tushunish kerak”³⁴. Haqiqatdan ham nutq og‘zaki yoki yozma shakldami unda anglashilgan voqelikni idrok qilish lingvistik ekspertiza uchun ham muhim. “Nutq insonning murakkab psixologik funksiyalaridan biri hisoblanadi. Nutqiy akt inson nutq apparati organlari faoliyati natijasida yuzaga keladi.”³⁵ Haqiqatdan ham inson nutqi qanday shaklda bo‘lmasin uning ruhiy holat, ovoz apparatlari yoki yozishdagi noqulayliklar adabiy me‘yordan chiqish ko‘rinishlarini yuzaga keltiradigan omillardan bo‘lishi mumkin.

Noma’lum muallifdan faqat qisqa xabarlar to‘plami mavjud bo‘lsa, mualliflik huquqini oshirish uchun ushbu xabarlarni jamlash lozim bo‘ladi. Shu bilan birga, onlayn kontekstda, shubhali to‘plamdagi barcha matnlar bir shaxs tomonidan tuzilganligiga kafolat yo‘q, chunki bir qator mualliflar tomonidan tuzilgan bo‘lishi ham mumkin. Shaxsiy yozishma kim tomonidan yozilganligini o‘rganish uchun funksiyalar to‘plamini ishlab chiqqandan so‘ng, keyingi qadam bir qator vazifalarda shu usulning samaradorligini sinab ko‘rish edi, yakuniy vazifa bitta yoki kichik miqdordagi qisqa xabarlar uchun ehtimol muallifni aniqlash, dolzarb muammo bo‘lar va ekspertlar uchun qiyinchiliklar tug‘dirar edi. Gumondor deb hisoblangan nomzodlar to‘plamida ko‘plab noma’lum mos keluvchi mualliflar mavjud bo‘lishi va noma’lum xabar muallifi gumondor deb hisoblanayotgan nomzodlar ichida mavjud bo‘lmasligi ham mumkin. Ekspertizaning maqsadi bu tizim quyidagi javoblardan birini taqdim eta olish edi:

- muallifi aniqlandi: natijalar ma’lum bir ishonch darajasidan oshadi;
- mos keluvchi muallif: natijalar ishonch darajasiga yaqinlashadi;
- aniqlanmagan: xabarda belgilangan ishonch chegarasidan yuqoriroq xulosa chiqarish uchun juda kam stilistik xususiyatlar mavjud;

³⁴ Жинкин Н.И. Грамматика и смысл // Язык и человек. – М., 1970. - 203-204 с.

³⁵ Лурия А.Р. Основные проблемы нейролингвистики. – М., 1975. - 72-73 с.

- bu yerda mavjud emas: muallifning nomzodlar to‘plamida bo‘lishi dargumon.

Xulosa qilib aytganda, muallifi yoki ijrochisi aniq bo‘lmagan xabarlar juda kichik hajmlarda bo‘lsa, ularning barchasi jamlanilishi lozim. Jamlangan xabarlarning xususiyatlarini o‘rganish esa muallifning topilishini yada osonlashtirish imkoniyatini yaratibgina qolmay, uning bir muallif yoki mualliflar jamoasi tomonidan yaratilganligini ham tekshirish imkonini beririb, ishning ochilishiga, ya’ni ekspertizaning osonlashishiga sabab bo‘lishi yoki umuman teskari tarafga aylanib ketishiga ham sabab bo‘lishi mumkin. Agar yozishmada bir muallif ishtiroki kuzatilsa, ishning yengil borishiga hamda gumondor shaxsni aniqlanishi mirmuncha osonlashishiga erishish mumkin, mobodo mualliflar soni ko‘p bo‘lsa, bunday yozishmalarning gumondorlari topilishi juda qiyin va aksariyat hollarda topilmasligi ham mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Жинкин Н.И. Грамматика и смысл // Язык и человек. – М., 1970. - 203-204 с.
2. Лурия А.Р. Основные проблемы нейролингвистики. – М., 1975. - 72-73 с.
3. О. Ю. Антонов. Особенности использования специальных знаний в области лингвистики при изучении электронной переписки в ходе расследования половых преступлений в отношении несовершеннолетних// Россия- Москва, 2018. - С. 5-11.
4. И. А. Ярошук, Н. А. Жукова, Н. И. Долженко. Лингвистическая экспертиза// Россия- Белгород , 2020. С. 5-95.
5. М.В. Батюшкина. Лингвистические экспертизы в юридическом дискурсе: виды и аспекты// Россия –Омской, 2016. С. 4-9.
6. G.Xolmatova, Lingvistik ekspertizada grafologiyaning roli// –Scientific Journal Impact Factor ISSN 2181-1784 VOL 1, ISSUE 3, 2021.
7. Бринев К. И. Теоретическая лингвистика и судебная лингвистическая экспертиза : монография / К. И. Бринев ; под редакцией Н. Д. Голева. Барнаул : АлтГПА, 2009. С. 32.